

UO‘K(UDC, УДК): 82-311.3

POSTMODERNIZM TAMOYILLARI ASOSIDA “VASIY” VA “THE CHILD” HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI³

Achilova Gulhayo Ismoilovna
Toshkent davlat transport univertiteti
tayanch doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: guliachilova9@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-1673-7589

ANNOTATSIYA

Maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “Vasiy” hamda Ali Smitning “The Child” hikoyalari postmodernizm nazariyasi asosida qiyosiy tahlil etilgan. Tadqiqotning maqsadi esa, o‘zbek va ingliz hikoyachiligida postmodernistik tamoyillar qanday shakllarda namoyon bo‘lishini aniqlash, ularning umumiylik va tafovutlarini ko‘rsatishdan iborat. Maqolada postmodernizmning asosiy nazariy manbalariga (Nitshe, Haydegger, Derrida, Fuko, Hutcheon, Makheyli, Nikol va boshqalar) tayangan holda, asarlar tahlilini falsafiy, estetik va narratologik jihatdan asoslaydi.

Tadqiqotda qiyosiy-adabiy, postmodern nazariy va diskursiv tahlil metodlari qo‘llanilib, intertekstuallik, metafiksiya, fragmentatsiya, ishonchsiz roviy, ironik o‘yin va ong oqimi kabi belgilar har ikki hikoyada tahlil qilinadi. “Vasiy” hikoyasida ayol ruhiyatining ichki bo‘linishi, voqealarning uzluksiz emas, bo‘laklangan tarzda berilishi va haqiqatning subyektiv talqini postmodernistik badiiyatni shakllantiradi. Hikoya ishonchsiz narratsiya, metafiksion noaniqlik va ong oqimi orqali onaning ruhiy inqirozi hamda onalik mehrining metaforik qudratini ochib beradi. Ali Smitning “The Child” hikoyasida esa g‘ayritabiiy holatda supermarket aravasida kutilmaganda paydo bo‘lgan gapiruvchi chaqaloq orqali zamonaviy jamiyatdagi gender, madaniy va ijtimoiy stereotiplar tanqid qilinadi. Hikoya absurdlik, ironik o‘yin, ishonchsiz roviy va ochiq yakun tamoyillari orqali o‘quvchini haqiqat va xayol chegarasini o‘zi anglashga undaydi. Bola obrazi jamiyatdagi axloqiy qarama-qarshiliklarning ramziga aylanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Postmodernizm, qiyosiy adabiyot, intertekstuallik, dekonstruksiya, metafiksiya, ishonchsiz roviy, ong oqimi, fragmentatsiya.

Received: August 30, 2025

Accepted: September 5, 2025

Available online:
November 16, 2025

³ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Achilova G. Postmodernizm tamoyillari asosida “Vasiy” va “The child” hikoyalarining qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 33-55.

UZBEK AND ENGLISH SHORT FICTION THROUGH THE LENS OF POSTMODERNISM: A COMPARATIVE READING OF “VASIY” AND “THE CHILD”

Achilova Gulhayo Ismoilovna

PhD student of

Tashkent state transport university,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: guliachilova9@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-1673-7589

ABSTRACT

The article provides a comparative analysis of Khurshid Dostmuhammad's "Vasiy" ("The Guardian") and Ali Smith's "The Child" based on postmodernist theory. The research aims to identify how postmodernist principles manifest in Uzbek and English short stories, highlighting their similarities and differences. Drawing on key theoretical sources of postmodernism (Nietzsche, Heidegger, Derrida, Foucault, Hutcheon, McHale, Nicol, and others), the article substantiates the analysis of these works from philosophical, aesthetic, and narratological perspectives.

The study employs comparative-literary, postmodern theoretical, and discursive analysis methods, examining features such as intertextuality, metafiction, fragmentation, unreliable narrator, ironic play, and stream of consciousness in both stories. In "Vasiy," the internal division of the female psyche, the fragmented presentation of events, and the subjective interpretation of reality form the postmodernist artistry. The story reveals the mother's psychological crisis and the metaphorical power of maternal love through unreliable narration, metafictional ambiguity, and stream of consciousness. In Ali Smith's "The Child," a talking baby unexpectedly appearing in a supermarket cart in an unnatural state serves as a critique of gender, cultural, and social stereotypes in modern society. Through principles of absurdity, ironic play, unreliable narrator, and open-ended conclusion, the story prompts readers to discern the boundaries between truth and imagination for themselves. The child's image becomes a symbol of moral contradictions in society.

KEYWORDS

Postmodernism, comparative literature, intertextuality, deconstruction, metafiction, ironic play, unreliable narrator, stream of consciousness, simulacrum, fragmentation.

УЗБЕКСКАЯ И АНГЛИЙСКАЯ НОВЕЛЛИСТИКА СКВОЗЬ ПРИЗМУ ПОСТМОДЕРНИЗМА: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РАССКАЗОВ “ОПЕКУН” И “THE CHILD”

Ачилова Гульхаё Исмоиловна

докторант,

Ташкентский государственный

транспортный университет,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: guliachilova9@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-1673-7589

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье на основе теории постмодернизма проводится сравнительный анализ рассказов Хуршида Дустмухаммада “Опекун” и Али Смит “The Child”. Цель исследования - определить, в каких формах проявляются постмодернистские принципы в узбекской и английской новеллистике, показать их общие черты и различия. В статье, опираясь на основные источники по теории постмодернизма (работы Ницше, Хайдеггера, Деррида, Фуко, Хатчеон, Макхейла, Николь и др.), автор осуществляет анализ произведений с философской, эстетической и нарратологической точек зрения.	Постмодернизм, сравнительное литературоведение, интертекстуальность, деконструкция, метафикция, ироническая игра, ненадёжный рассказчик, поток сознания, симулякр, фрагментация.
В исследовании применяются методы сравнительно-литературного, постмодернистского теоретического и дискурсивного анализа. В обоих рассказах анализируются такие категории, как интертекстуальность, метафикция, фрагментация, ненадёжный рассказчик, ироническая игра и поток сознания. В рассказе “Опекун” постмодернистскую художественность формируют внутреннее разделение женской психики, фрагментарное представление событий и субъективная интерпретация истины. В рассказе через ненадёжное повествование, метафикционную неопределенность и поток сознания прослеживается психологический кризис матери и метафорически изображается сила материнской любви. В рассказе Али Смит “The Child” при помощи неожиданно появившегося в тележке супермаркета говорящего младенца критикуются гендерные, культурные и социальные стереотипы современного общества. Образ ребенка в произведении Али Смит становится символом нравственных противоречий в обществе. Используя абсурд, ироническую игру, ненадёжного рассказчика и открытый финал, автор рассказа побуждает читателя самостоятельно осмыслить границу между реальностью и воображением.	

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida yuz bergan insoniyat hayotidagi jiddiy o'zgarishlar natijasida jamiyat qadriyatlari o'zgardi, odamlar ongida mavhumlik va ziddiyatlar kuchaydi. Bu jarayon adabiyotda ham sezilmay qolmadi: realizmning obyektiv tasvirga asoslangan modeli asta-sekin mavqeyini yo'qotib, inson ongi, ichki kechinmalari va ruhiy ziddiyatlari markazga chiqdi. Adabiyotshunoslikda **postmodernizm** deb ataladigan yangi oqim shakllandi.

Postmodernizmning falsafiy ildizlari Fridrix Nitsshe va Martin Haydegger qarashlariga borib taqaladi. Nitsshe XIX asrning oxirlarida G'arb tafakkurining tayanch nuqtalari – ratsionalizm va mutlaq haqiqat tushunchasini tanqid ostiga oladi. Olim "Haqiqat, aslida, biz unutib yuborgan metaforalarning yig'indisidan boshqa narsa emas", deb yozadi (Nitsshe F., 1999, 84). Bu fikr orqali u haqiqatning abadiy va o'zgarmas emas, balki shartli, metaforik va jamiyatdagi moslashuvlarga asoslangan hodisa ekanini ta'kidlaydi. Martin Haydegger XX asr boshida ontologiya – mavjudlik masalasini yangicha talqin qildi. U "Sein und Zeit" ("Borliq va vaqt", 1927) asarida haqiqatni oldindan tayyor va o'zgarmas narsa emas, balki odamning yashash vaqti, joyi va tarixiy sharoitiga qarab shakllanadigan, doimo o'zgarishdagi hodisa deya ta'riflaydi (Haydegger M., 1962, 262). Shu sababli u modern tafakkurning yagona va umumiy haqiqatga intilish g'oyasini tanqid qilib, mavjudlik aslida ko'p qirrali va kontekstga bog'liqligini ta'kidlaydi. Nitsshe va Haydeggerning bu qarashlari keyinchalik Derrida, Fuko, Lyotar kabi postmodern faylasuflar uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Ular postmodern tafakkurni turli yo'nalishlarda asoslab, "yagona haqiqat"ga tayangan modernizm asoslarini qayta ko'rib chiqishga urindilar. Ana shu ikki yirik g'oya postmodernizmning shakllanishida asosiy falsafiy tayanch bo'ldi. Postmodernizmni ko'pincha ularning modernizmga qarshi qo'ygan radikal tanqidlarining madaniy va adabiy shakllarda davomchisi deb qarash mumkin.

Postmodern adabiyot nazariyasini shakllantirgan inglizzabon olimlardan biri – Linda Hachten bo'lib, u "The Poetics of Postmodernism" ("Postmodernizm poetikasi", 1988) asarida ushbu oqimga ijobiyroq yondashadi. Hachten postmodern

asarlarni o‘z-o‘ziga ishora qiluvchi, tarixni qayta yozuvchi, intertekstual va tanqidiy xarakterga ega deb ta’riflaydi (Hatchen L., 1988, 5-12). Uning fikricha, postmodernizm modernizmga qarshi emas, balki uni davom ettirib, ironik ruhda qayta ko‘rib chiqadi. Ayniqsa, u “historiographic metafiction” tushunchasini ishlab chiqib, tarixiy fakt va badiiy to‘qima o‘rtasidagi chegaraning buzilishi orqali haqiqatning nisbiyligini ko‘rsatadi.

Brayan Makheyl esa “Postmodernist Fiction” (“Postmodernistik badiiy adabiyot”, 1987) asarida postmodern adabiyotning asosiy belgisi sifatida “ontologik dominant”ni ilgari suradi. Agar modernizm ko‘proq bilish nazariyasi – epistemologiya masalalariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, postmodernizm asosan mavjudlik va haqiqatning tabiatini, ya’ni ontologiyani tadqiq qiladi (Makheyl B., 1987, 9-25). Makheyl ta’kidlashicha, bunday matnlarda bir nechta haqiqatlar, o‘zaro to‘qnashuvchi dunyolar va o‘zini o‘zi anglaydigan tuzilmalar mavjud bo‘ladi. Postmodern adabiyot intertekstuallik, metafiksiya, pastij, o‘yin va ironiyaga tayangan holda matnning beqaror va ko‘pqirrali tabiatini ochib beradi.

Brayan Nikol esa postmodern adabiyotning umumiy belgilarini tizimli tahlil qilib, postmodern matnlar ironik yondashuv, intertekstual o‘yinlar, mualliflik mavqeyining susayishi va haqiqatning bir nechta qatlamda namoyon bo‘lishi bilan ajralib turishini aytadi (Nikol B., 2009, 3-15). Unga ko‘ra, postmodernizm o‘quvchini faol talqinga chorlaydi va uni haqiqat hamda ijtimoiy ong haqidagi qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

O‘zbek adabiyotshunos olimlaridan Ulug‘bek Hamdam “Jahon adabiyoti: Modernizm va Postmodernizm” qo‘llanmasida postmodern adabiyotning mohiyatini an’anaviy tamoyillardan voz kechish, shakl va mazmunda cheksizlik hamda ijodiy erkinlikni markazga chiqarish bilan izohlaydi. Uningcha, postmodernizm so‘z o‘yinlari, intertekstuallik, iqtiboslar, ironik va satirik usullar orqali madaniy xotirani qayta talqin qiladi (Hamdamov U., 2020, 288). Bu usullar matnni nafaqat axborot manbayi, balki o‘quvchini fikrlashga undovchi estetik hodisaga aylantiradi. Syujetning parchalanishi, mualliflik pozitsiyasining yo‘qligi va sun’iylilik esa realizmdan farqli ravishda voqelikni nisbiy va fragmentar

ko'rsatadi. Olim nazdida postmodernizm ommaviy madaniyat, globalizm va axborot oqimi fonida shakllanib, janrlar o'rtasidagi chegaralarni buzadi, san'at, tarix va falsafani qorishma shaklida birlashtiradi.

Qozoqboy Yo'ldosh "Badiiy tahlil asoslari" kitobida postmodern adabiyotni an'anaviy mezonlarni buzuvchi va talqinni markazga qo'yuvchi tafakkur shakli deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, bunday matnlarda muallif emas, balki "skriptor" – madaniy kodlardan yangi kontekst yaratuvchi subyekt – markazda turadi (Yo'ldosh. Q., 2020, 270). Kitobxon esa faol talqin qiluvchi ishtirokchiga aylanadi. Postmodern matnning asosiy belgilariga intertekstuallik, parodiya, dekonstruksiya, ramziylik va simulyakr kiradi. Bunday asarlar dunyoni betartib, boshboshdoq, o'tkinchi va anglash qiyin hodisalar majmuasi sifatida ko'rsatishga intiladi. Shu bois ular tasavvur, tush, ongsizlik kabi holatlarni tasvir vositasi sifatida keng qo'llaydi va shu orqali postmodern manzarani ifodalaydi. Masalan, T. Pinchonning "Gravity's Rainbow" ("Gravitatsiya kamalagi", 1973) yoki K. Vonnegutning "Slaughterhouse-Five" ("5-raqamli qushxona", 1972) romanlari zamon va makonning izchilligini buzib, matnni o'yin maydoniga aylantiradi. Q.Yo'ldoshning fikricha, postmodernizm o'zbek nasriga ham ta'sir ko'rsatgan. Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton kabi yozuvchilarda syujet parchaliligi, mualliflikning ko'rinmasligi, falsafiy qatlam va intertekstual ishoralar yaqqol seziladi. Bu asarlar o'quvchini faol talqinga chorlaydi va yangi ma'nolar yaratishga undaydi. O'zbek she'riyatida ham aruz, g'azal, erkin vazn va zamonaviy poetika unsurlarining qorishmasi kuzatiladi.

Bugungi adabiy jarayonda postmodernizm masalasi nafaqat jahon adabiyotshunosligida, balki o'zbek ilmiy muhitida ham tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Bu oqimning asosiy belgilaridan bo'lgan intertekstuallik, fragmentatsiya, ironik o'yin, polifoniya va matnning ko'pqirrali talqinlari asarlarning yangicha idrokiga imkon yaratadi. Xurshid Do'stmuhammadning "Vasiy" bilan Ali Smitning "The Child" ("Bola") hikoyalarini qiyoslab o'rganish, nafaqat ikki yozuvchining individual uslubini, balki zamonaviy o'zbek va ingliz hikoyachiligidagi umumiy tendensiyalarni ham aniqlash uchun dolzarbdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek adabiyotshunosligida postmodernizm hali to'liq tadqiq qilinmagan soha hisoblanadi. G'arb adabiyotida esa postmodernistik qarashlar keng yoritilgan bo'lsa-da, Ali Smith kabi zamonaviy yozuvchilarning hikoyalarini o'zbek nasri bilan yonma-yon tahlil qilish hali amalga oshirilmagan. Shu bois bu maqola milliy adabiyotimizni jahon adabiy jarayonlari fonida ko'rib chiqishga xizmat qiladi. **Tadqiqotning yangiligi** "Vasiy" va "The Child" hikoyalari ilk bor postmodern nazariya asosida qiyosiy tahlil qilinganida namoyon bo'ladi. Avvalgi izlanishlarda "Vasiy" asosan milliy-estetik nuqtayi nazardan o'rganilgan, "The Child" esa ingliz adabiyoti doirasida talqin qilingani bois, ularni bir-biri bilan bevosita qiyoslash yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. **Tadqiqot maqsadi** ikkala hikoyada ham postmodernistik estetik tamoyillarning qanday namoyon bo'lishini ochib berish, ularning umumiy va farqli jihatlarini ko'rsatishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- postmodernizmning nazariy asoslarini (Lyotar, Derrida, Fuko, Bodriyar va boshqa ingliz hamda o'zbek olimlari qarashlari asosida) qisqacha yoritish;
- hikoyalarda intertekstuallik, fragmentatsiya, ironik o'yin, muallifning chekinishi kabi belgilarni aniqlash;
- o'zbek va ingliz hikoyachiligi o'rtasidagi umumiylik va tafovutlarni ko'rsatish;
- "Vasiy" va "The Child" hikoyalarining qiyosiy tahlili orqali postmodern hikoyachilikning xalqaro va milliy adabiy jarayondagi o'rnini belgilash.

Tanlangan mavzu adabiyotshunosligimizda yangi qadam bo'lib, milliy hikoyachiligimizni dunyo adabiyoti bilan muloqotda o'rganishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM.

Mazkur maqolada bir necha metodlardan foydalanildi. Avvalo, **qiyosiy-adabiy metod** tanlanib, u orqali o'zbek va ingliz hikoyachiligidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Shuningdek, **postmodernistik tahlil** asosida hikoyalarda intertekstuallik, dekonstruksiya, ironik o'yin va metafiksiya kabi xususiyatlarni ochib berishga yordam berdi. **Diskursiv tahlil metodidan** foydalanish esa

hikoyalardagi ijtimoiy-madaniy kontekst, matnning ichki ramziy va ma'no qatlamlarini ochib berish imkonini berdi.

Xurshid Do'stmuhammadning "Vasiy" hikoyasi postmodern uslubda yaratilgan. Asar bosh qahramoni – yangi tug'ilgan chaqalog'idan ayrilgan ona – ruhiy iztirob va o'z-o'zini anglash inqirozini boshdan kechirayotgan ayol. U ichida og'riq borligini yashirmaydi. O'zini anglash jarayonida u yiqiladi, turadi, yana qaytadi. Hikoya markazida ona va bola obrazlari turadi. Shu obrazlar vositasida postmodern kontekstdagi ayol ruhiyatining ziddiyatli jihatlari – zaiflik va sobitlik uyg'unligi, yo'qotishlarni inkor etgan, ong ostida bolasining tirikligiga matonat bilan ishongan va boshqalarni ham ishontirmoqchi bo'lgan, ruhi pajmurda onaning alamli iztiroblari tadqiq etiladi. Ta'kidlash joizki, "Vasiy" hikoyasi odatiy xronologik izchillikka amal qilmaydi. Unda voqealar epizodlarga bo'lingan, parokanda tasvirlar orqali berilgan. Bu uslub postmodern adabiyotga xos. Chunki postmodern asarlarda olam yaxlit va mantiqli manzara sifatida emas, balki tartibsiz, hatto ma'nosiz hodisalar yig'indisi sifatida ko'rinadi (Makheyli B., 1987, 278). Shu bois yozuvchi ham voqelikni izchil syujet asosida emas, balki uzuq-yuluq va tartibsiz rivoyatlar orqali tasvirlaydi. Masalan, hikoya boshida juvonning musichalar ortidan hovliga chiqishi, hovlini supurishi, suv quvurini burashi yoki quyosh nuri bilan bog'liq tasvirlar alohida-alohida parchalar shaklida berilgan. Keyingi qismda esa ayolning narvonga chiqib oynani artishi, bexos yiqilishi, shu paytda yigit obrazining kirib kelishi ham an'anaviy sabab-oqibat izchilligi asosida emas, balki bo'laklangan tasvirlar orqali ifodalanadi. *"Oppoq, toza dasturxonga yo'rgaklangan chaqaloqni tizzalari orasiga yotqizib-tebratib o'tirgan juvon ayvonning lang ochiq derazasidan bo'ynini cho'zib hovliga qaradi. Quvalashayotgan bir juft musichani ko'rdi-yu yo'rgakni avaylab ko'rpachaga yotqizdi, o'rnidan ildam turib kalishini oyog'iga ilganicha hovliga tushdi. Musichalar qanotini parillatib oldinma-keyin tomga ko'tarildi. ...Juvon ayvonga qaytayotib vodoprovod yoniga bordi, bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan jo'mrakni burab suvni jildiratdi, qo'lini sovunladi, yuvdi-sovunladi, sovunladi-yuvdi, so'ng tirsagini jo'mrak chambaragiga botirib uni burashga unnadi. Suv kamaysa-da, to'xtamadi, ko'ngli joyiga tushmagan juvon*

tirsagi bilan jo'mrakka tayangan ko'yi vodoprovod tevaragida gir-gir aylana boshladi: bir, ikki, uch... nihoyat, jo'mrak qotdi – suv to'xtadi. Juvon suv yuqi selgishini kutib qo'llarini yoniga osiltirdi, keyin boshi barobar ko'tarib quyoshga tutdi". Dasturxon, chaqaloq, musicha, ayol, suv, quyosh obraz va predmet detallarining mikromatnda birikuvida ham parokandalik bor, adib mahoratining yuksakligi shundaki, ekspozitsiya tasviridanoq kitobxon sergak tortadi. Chaqaloqning dasturxonga yo'rgaklanishi, ayolning qo'l yuvish va qo'llarini boshi barobar ko'tarib, quyoshga tutish tasvirlarida telbalik borligini anglaydi.

Postmodernistik nazariyaga ko'ra badiiy asarlarda voqealar rivoji ko'pincha izchil emas, "uzuq-yuluq va norealliklardan iborat" (Hatchen L., 1988, 272). "Vasiy" hikoyasining syujet qurilishi ham parchalangan shaklda bo'lib, postmodern tamoyillarga mos keladi. Dunyo yaxlit tizim sifatida emas, balki bo'laklar yig'indisi sifatida tasvirlanadi. Voqealar ketma-ketligi buzilgan, ularni umumiy ma'noga keltirish vazifasi o'quvchining o'ziga yuklatiladi. Fragmentatsiya orqali asarda ayol ruhiyatidagi ichki bo'linishlar va xotira qatlamlari ifodalanadi. Hikoyada tashqi harakat tasvirlari, ichki monologlar va xotiralar almashib keladi. Natijada yagona "metarivoyat" yo'qoladi, o'rniga bo'laklardan tashkil topgan estetik shakl paydo bo'ladi.

Postmodern adabiyotning yana bir muhim belgisi – **metafiksiya** bo'lib, bu usulda matn o'z qurilishini ochib beradi, ya'ni u o'zi "hikoya" ekanini yashirmaydi. Shu bilan birga, real voqealar bilan xayoliy unsurlar orasidagi chegara buziladi, ular bir-biriga aralashib ketadi. Metafiksiya tushunchasi adabiyotda tez-tez "haqiqat va to'qimaning chegaralarini xiralashtiruvchi" (Vo P., 1984. 176) uslub sifatida ta'riflanadi. "Vasiy" hikoyasida metafiksiyon yondashuv asosiy o'rinda turadi. Matnda real hodisalar – hovli manzarasi yoki yigitning xatti-harakatlari ayol ongida kechayotgan xayoliy tasvirlar bilan qorishib ketadi. Shu bois voqealarning qaysi qismi muallif haqiqati, qaysi qismi esa qahramon tasavvurining mahsuli ekanini darhol ajratib olish qiyinchilik tug'diradi. Makheyli ta'kidlaganidek, postmodernistik matn o'quvchini o'yin maydoniga chorlaydi, unda "mumkin bo'lmagan, noreal

voqealarning qay biri fakt, qay biri to‘qima ekanligi aniq emas” (Makheyli B., 1987, 257).

Hikoya davomida onaning chaqalog‘i mavjudligi dastlab mutlaq reallik sifatida ko‘rsatiladi: *“U nimalardir deb pichirlar, dam-badam bo‘ynini cho‘zib hovliga razm solar, dasturxon chetlarini tortib-tortib chaqaloqning yuzini yashirishga tirishar, hovli jimjit, ayvon jimjit, ba‘zan juvonning shiviri quloqqa chalinmasa, hovli ham jimjit edi.”* Biroq ayrim mayda detallar – chaqaloqning yuzining doim yopiq turishi, uni har doim mahkam o‘rab avaylash, hattoki bolaning biror tovush chiqarmasligi – kitobxon shubhasiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, onaning chaqaloq bilan goh o‘zi gaplashib, goh uning nomidan “javob qaytarishi” surreal sahna yaratadi:

- *Seni mendan olib qo‘yishmoqchi!*
- *Men sening bolangman-ku.*
- *Ne-echta tug‘dim-a!.. Tug‘aman – ular olib qo‘yadi, tug‘aman – olib qo‘yaverishadi. Ozmunchasini yo‘qotdimmi?! Seni bermayman!..*
- *Meniyam tortib olishsa-chi?*
- *Unda yana tug‘aman. Agar endiyam erga berishmasa-chi, o‘zimmi mana bunaqa qilib qiyib tashlayman! Ko‘ryapsanmi?..*

Shu tarzda hikoya ichida yana bir hikoya – onaning ongida kechayotgan xayoliy hikoya – yuzaga keladi. Bu holat metafiksiyaning yorqin namunasidir: matn o‘z chegaralari bilan “o‘ynaydi”, obyektiv reallik va subyektiv xayolni bir butun hodisa sifatida birlashtiradi (Hatchen L., 1988, 274). Metafiksion noaniqlik hikoyada ayolning fojiasini chuqurroq his qilishga yordam beradi. Ona achchiq haqiqatdan qochib, o‘zi yaratgan haqiqat – tasavvurida gavdalantirgan bolasiga talpinadi. Matnda taxayyuliy va real qatlamlar o‘zaro sintezlanib, ular o‘rtasidagi an’anaviy chegara dekonstruksiya qilinadi.

Dastlab voqealar ishonarli ko‘rinadi: chaqaloq haqiqatan ham mavjuddek tuyuladi, chunki matnda bunga qarshi ochiq ishora mavjud emas. Lekin syujet rivoji davomida bu ishonch asta-sekin so‘na boshlaydi. Eng keskin burilish – juvonning chaqaloq aslida bo‘sh yo‘rgak va yostiq ekanini bilib qolishi: *“... boya o‘zi qo‘ygan*

yo'rgakni olib qon dog'lari qotib qolgan qog'ozga, qaychilab tashlangan dasturxonga angraydi, chuqur, so'lg'in uf tortdi. Qog'ozni, dasturxonni ochdi-da, unga o'ralgan chaqaloq-yostiqni olib taxmonga qo'ydi, oyoq uchida yurib kelib eshik tirqishidan ayvonga mo'raladi." Ertalab tong otganda, u qo'lidagi yo'rgakni ochadi va ichidan bola o'rniga yostiq chiqadi. Shu nuqtada avvalgi hikoya bayoni butunlay qayta talqin qilinadi: ilgari haqiqat sifatida qabul qilingan chaqaloq obrazi endi faqat onaning ruhiy illyuziyasi bo'lib chiqadi. Bunday yakun postmodern adabiyotda keng uchraydigan usuldir. U o'quvchini ortga qaytib, avval o'qilgan barcha tafsilotlarni endi ishonchsizlik bilan qayta ko'rib chiqishga majbur etadi. "Vasiy"dagi bu ishonchsiz narratsiya ayolning ruhiy fojiasini kuchaytiradi va matnga falsafiy qatlam qo'shadi.

Ishonchsiz roviy tushunchasi adabiyotshunoslikda voqealarni ishonib bo'lmaydigan pozitsiyadan bayon qiluvchi hikoyachini anglatadi. Rimmon-Kenan bu turdagi hikoya qiluvchini "ishonchliligi shubha ostidagi shaxs" (Rimmon-Kenan S., 2002, 208) deb ta'riflaydi. Hikoya uchinchi shaxs tilidan aytilsa-da, tasvirlarning barchasi onaning ruhiy prizmasidan filtrlangan. Shuning uchun biz ko'rayotgan "haqiqat" aslida qahramonning buzilgan idroki orqali shakllanadi va bu ishonchsiz bayonni yuzaga keltiradi. Hikoyadagi roviy bevosita shaxs bo'lmasa-da o'quvchini chalg'itadi, voqealar yuzasidan to'liq haqiqatni darhol oshkor qilmaydi. Bu uslub ayolning ruhiy holatini o'quvchiga kuchli hissiy ta'sir bilan yetkazadi. Kitobxon bir muddat uning aldov ustiga qurilgan xayolot olamida sarbasar kezadi va faqat yakunda haqiqatni anglagach, muallif niyatini anglaydi. Ishonchsiz bayon voqealarning asl manzarasini qanchalik buzib ko'rsatishi mumkinligini, inson ongining esa o'zini qanday alday olish darajasini badiiy jihatdan ochib beradi. "Vasiy"dagi bunday bayon postmodernizmning subyektiv haqiqat tushunchasini tasdiqlaydi: haqiqat mutlaq emas, u kuzatuvchining ongiga bog'liq. Muallif matnda yagona "to'g'ri" haqiqatni taqdim etmaydi, uni o'quvchi o'zi topishi va talqin qilishi kerak bo'ladi.

Hikoyada ayol qahramonning ichki kechinmalari va ruhiyatidagi murakkab

o‘zgarishlar ham juda nozik tarzda ochib berilgan. Adib bu yerda psixologik tahlil bilan birga ong oqimi uslubidan ham foydalanadi. Ong oqimi adabiyotda qahramon ongida kechayotgan fikr va tuyg‘ularni uzluksiz oqim sifatida, to‘xtovsiz va tabiiy ravishda tasvirlashga xizmat qiluvchi uslubdir (Koyn D., 1978, 271). Shu orqali o‘quvchi qahramonning ichki dunyosiga bevosita kirib boradi. “Vasiy” hikoyasida juvonning ruhiy holati ichki monolog va tasavvuridagi chaqaloq bilan suhbatlarida teranlashadi. Qahramonning hayajon, qo‘rquv, iztirob, umid va umidsizlik o‘rtasidagi tebranishlari batafsil yoritiladi. Bir lahzada u o‘zini xotirjam tutib, vaziyatga go‘yo ko‘nikkandek bo‘ladi, keyingi lahzada esa keskin asabiylashib, vahimaga tushadi. Ayol ichki muvozanati ketma-ket yo‘qotishlarga dosh berolmaydi, darz ketadi. Shu kechinmalar matnda uzluksiz ruhiy oqim sifatida aks etadi – xuddi o‘quvchi qahramon tafakkuri ichiga kirib, u yerdagi ong jarayonlarini bevosita kuzatayotgandek taassurot uyg‘otadi. Masalan, hikoyada juvonning alla aytib, goh o‘zi, goh chaqaloq bo‘lib savol-javob qilishi uning ongida ichki dialogni shakllantiradi:

– *Sen ko‘p vaysama. Yuzingni ochma. Xo‘pmi?.. Ular ovozingni eshitsa, seni olib qo‘yishadi. Sensiz holim nima kechadi? Seni qayerdan topaman yana?*

– *Bo‘lmasa, yashirib qo‘y.*

– *Tovushingni chiqarma deyapman! Izimdan yuradi ular, meni o‘z holimga qo‘yishmaydi... Eshitib qolsa uyim kuyadi, vayron bo‘laman!*

– *Yashir, tezroq! Shoshilsang-chi!*

– *Menga o‘rgatma, deyapman! Nima, yashirishga aqlim yetmaydimi? Yetmaydimi!.. Mana!.. Mana!..*

Juvon alla aytayotib... dam o‘zi, dam chaqaloq bo‘lib savol-javob qilar, “bolasi” yoqimli gap aytguday bo‘lsa, “Voy, aylanay-ey!” deb... lekin qo‘lini cho‘zar-cho‘zmas yig‘lab yuborar, yana allalashda davom etardi”. Bu parchada qahramon shuurining tanazzuli aniq seziladi. U go‘yo o‘zi va farzandi nomidan gaplashib, ichki dialog olib boradi. Bu usul uning ruhiy murakkabligini o‘quvchiga bevosita his qildiradi. Real hayotdagi yo‘qotishlardan telba olamidagi mavjudlikni tanlaydi, chunki o‘lik bolalarini berishdan charchagan ayol endi ularni olib

qo'yuvchilar bilan kurashadi, ammo soxta haqiqati oldida baribir ojiz qoladi, qazoyi qadariga rozi bo'ladi.

Psixologik oqim yordamida ona ruhiyatining eng nozik, hatto qo'rqinchli qatlamlariga kirib boramiz. Onaning ichki nutqi, xotiralari va tasavvurlari bir butun oqim sifatida tasvirlanadi. Bu jarayonda muallif ovozi chekinadi, o'rnini qahramon ongining bevosita tasviri egallaydi. Ong oqimi texnikasida biz tashqi voqealardan ko'ra qahramon fikrlarining ichki tartibsizligini, parokandaligini kuzatamiz (Koyn D., 1978, 271). "Vasiy"da ham voqelik asosan onaning subyektiv qarashlari orqali idrok etiladi: u doim nimanidir o'ylaydi, ichida o'zi bilan gaplashadi, o'tmishni xayol qiladi, kelajakdan xavfsiraydi. Juvon o'z ruhiy holatini ba'zan anglagandek, ba'zan anglay olmagandek ikkilanishda tasvirlanadi – bu esa asarga yana bir postmodern unurni – **o'z-o'zini anglash jarayonining murosasizligini** olib kiradi. Ayol ba'zan xuddi o'z telbaligini sezib turganday, atrofdagi voqelikka boshqacha ko'z bilan qaraydi. *"Juvon g'ira-shira tong ota boshlaganida uyg'onidi, o'tirgan ko'yi ostin-ustin bo'lib ketgan uyning ahvoliga razm soldi, o'rnidan shoshilmay turib sochini, ko'ylak yoqalarini tuzatdi, ...oyoq uchida yurib kelib eshik tirqishidan ayvonga mo'raladi. ...yigit stulda g'ujanak bo'lib o'tirgancha uxlayotgan edi..."* Tunda bo'lgan voqealardan so'ng, tong saharda u uyg'onib, uy ichidagi behalovat manzaraga bir muddat jimgina nazar tashlaydi va chuqur "uf" tortadi – bu xatti-harakat orqali ongli ravishda vaziyatga razm soladi. So'ngra juvon hushini yig'ib, real vaziyatga qaytgach, yigitga *"Men tuzukman... yaxshi bo'lib qoldim"* deya murojaat qiladi. Bu so'zlar ham qahramonning o'z holatini anglashga intilayotganidan darak beradi. Shunday qilib, "Vasiy" hikoyasida voqealarni emas, balki ayol ruhiy olamini tasvirlashga urg'u beriladi – adibning badiiy tadqiq markazida **inson ongining o'zi** turadi. Bu tamoyil Linda Hachten ta'kidlaganidek, postmodern adabiyotda shaxsiy "Men"ni koinotning markaziga qo'yish, obyektiv reallikdan qochib subyektiv haqiqatga urg'u berish an'anasiga mos keladi (Hachten L., 1988, 274).

Hikoyaning tematik markazi – ona va bola obrazlari. Bola bevosita ko'rinmasa-da, yostiq ramziy shaklda uning o'rnini bosadi. Onaning harakati shu

“bola” atrofida quriladi. Ayol yolg‘iz, qo‘rquv va bosim ichida, eng og‘iri esa farzand yo‘qotish dardi. Shunga qaramay, onalik tuyg‘usi uni butunlay sindirmaydi. Juvon yostig‘ini chaqaloqdek asraydi, bag‘riga bosadi va himoya qiladi. Bu epizodlar onalik mehrining qudratini ochib beradi. Yigit obrazi tashqi himoya timsoli sifatida ko‘rinadi, biroq ayolning chinakam tayanchi – onalik instinkti. “*Sen o‘lmasin, seni yashiraman!*” degan qat‘iyati mehrning tiriklikka bog‘langan timsoli bo‘lib yangraydi. Demak, bola yo‘q bo‘lsa-da, ona uchun u mavjud. Xurshid Do‘stmuhammad shu ziddiyat orqali ayol tabiatining murakkabligini ochadi: u zaif, chunki mehr bilan yashaydi; lekin aynan shu mehr unga kuch beradi. Hikoya davomida juvon ichki izzitoblardan o‘tib, tongga yaqin xotirjamlikka erishadi. Bu – zulmatdan yorug‘likka chiqish, ruhiy tiklanish ramzidir. “Vasiy” o‘zbek adabiyotida postmodern estetikani o‘zlashtirgan va ona tabiatining chuqur psixologik tahlilini bergan asar sifatida alohida o‘rin tutadi. Hikoyada musibatlarga duch kelgan, ammo ichki qudratini yo‘qotmagan, sinmagan ayol obrazi badiiy yuksaklikda tasvirlanadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tahlil keyingi bosqichda Ali Smitning “The Child” (“Bola”) hikoyasi bilan qiyosiy tarzda olib boriladi.

Ali Smit – zamonaviy shotland yozuvchisi bo‘lib, uning hikoyalari noodatiy yondashuvi va postmodern uslubi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, 2008-yilda nashr qilingan “The First Person and Other Stories” (“Birinchi shaxs va boshqa hikoyalar”) to‘plamiga kirgan “The Child” hikoyasi postmodern adabiyotning o‘ziga xos belgilarini yaqqol namoyon qiladi. Yozuvchi oddiy hayotiy vaziyat – supermarketdagi xarid jarayonini markazga olib: “*I went to Waitrose as usual in my lunchbreak to get the weekly stuff*” (Smit A., 2008, 26). (*Odatiy tarzda tushlik tanaffusimda haftalik xaridlarimni qilish uchun Veytrouz do‘koniga bordim*) (Hikoyadan keltirilgan tarjimalar muallifga tegishli), uni g‘ayrioddiy, hatto absurd voqeaga aylantiradi. Hikoyada yosh ayolning aravasidan begona bola topib olishi voqealarning asosiy dramatik nuqtasi bo‘lib, shu zahotiyoq haqiqat va tasavvurning chegarasi buziladi. An’anaviy realizmdagi izchil sujet o‘rnini bo‘laklilik (fragmentatsiya) egallaydi: supermarket, mashina, o‘rmon, yana boshqa do‘kon kabi sahnalar bir-biriga qat‘iy bog‘lanmay, mustaqil epizod sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq bu sokin boshlanish ortidan to'satdan paydo bo'lgan sirli go'dak hikoyaga surreal tus bag'ishlaydi. *"But when I came back to the vegetables again I couldn't find my trolley. It seemed to have been moved. In its place was someone else's shopping trolley, with a child sitting in the little child seat, its fat little legs through the leg-places"* (Smit A., 2008, 26). *(Ammo men sabzavotlar bo'limiga qaytganimda aravamni topolmadim. Go'yo uni boshqa joyga olib qo'yishgandek edi. Uning o'rnida esa kimningdir boshqa xarid aravasi turardi, kichkina bolalar uchun mo'ljallangan o'rindiqlarda esa bir bola o'tirar, uning kichkinagina do'mboq oyog'lari esa o'rindiqdan chiqib osilib turardi)*. Ali Smit postmodern adabiyotga xos tarzda oddiy reallikni buzib, undagi mantiqiy bog'lanishlarni parchalab tashlaydi. Natijada o'quvchi haqiqat va sarobning kesishgan hududida qoladi. Hikoyada chaqaloqning kutilmaganda paydo bo'lishi va atrofdagilarning bu holatni odatiy qabul qilishi reallik hissini ataylab susaytiradi. Masalan, do'konda hech kim bolasini yo'qotganini da'vo qilmasa-da, atrofdagi xaridorlar va xodimlar *"What a lovely boy! He's very like his mum"* (Smit A., 2008, 26). *(Qanday ajoyib bola! Onasiga juda o'xsharkan)* deya ayolni bola onasi sifatida tabriklashadi. Bu yerda haqiqat va illyuziya chizig'i xiralashadi: o'quvchi hikoya qiluvchi ayolga ishonishi kerakmi yoki u onalikni rad etayotgan telba onami – tushunish qiyin. Shu sababli tahlilda hikoyaning asosiy postmodern unsurlari – fragmentatsiya, metafiksion elementlar, ishonchsiz hikoya, o'z-o'zini anglash, ruhiy murakkablik, ramz va timsollar ko'pligi hamda muallif pozitsiyasining yashirinligi – alohida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, hikoya **ishonchsiz roviy** uslubiga qurilganini ko'ramiz. Bola qayerdan kelgani noma'lum, uning aslida mavjudligi ham shubha ostida qoladi. Buning ustiga, u yoshiga yarashmagan tarzda kattalardek gapirib, haydovchilik haqida kinoya qiladi, hatto jamiyatdagi gender stereotiplarini masxara qiladi. Shu sababli o'quvchi voqealarning haqiqiyligiga ishonch hosil qilolmaydi, muallif ovozi esa butunlay soyada qoladi. O'quvchi Rolan Bart ta'kidlaganidek matndan aniq "haqiqat" izlamaydi, balki uni o'z talqini orqali qayta yaratishga majbur bo'ladi va "matn muallifdan mustaqil yashaydi" (Bart R., 1967, 160).

Shuningdek, hikoyaning eng qiziqarli jihatlaridan biri – metafiksionlikdir. “The Child” hikoyasida muallif bevosita o‘z shaxsiyati haqida gapirmaydi va an’anaviy metafiksion uslub, ya’ni o‘quvchiga yuzlanish ko‘zga tashlanmaydi. Biroq hikoyaning umumiy uslubi va ohangida metafiksion elementlar, ya’ni matnning o‘z badiiy tabiati haqida o‘ylashga undovchi va uni tanqid ostiga oluvchi jihatlar mavjud. Ular voqealarning g‘ayrioddiyligi, haqiqat va xayol orasidagi noaniqlik, hikoyachining ishonchliligi bilan o‘ynash orqali namoyon bo‘ladi. Eng avvalo, hikoyaning asosiy voqeasi – yosh ayolning dabdurustdan paydo bo‘lgan begona chaqaloqqa to‘qnash kelishi va uni “o‘z bolasi” deb qabul qilishga majburlanishi – hayotda deyarli mumkin bo‘lmagan, ertaknamo hodisadir. Oddiy kundalik manzara kutilmaganda g‘ayritabiiy voqeaga ulanadi hamda bu orqali matnda real va fantastik olam chegarasi butkul buziladi. Chaqaloqning gapira boshlashi esa hikoyaning eng muhim metafiksion unsurlaridan biridir: *“You’re a really rubbish driver, a voice said from the back of the car. I could do better than that, and I can’t even drive. Are you for instance representative of all women drivers or is it just you among all women who’s so rubbish at driving?” – It was the child speaking.*” (Smit A., 2008, 28) (*“Sen juda ham yomon haydovchisan,” dedi mashina orqa o‘rindig‘idan bir ovoz. “Men bundan yaxshiroq haydashim mumkin, holbuki men hatto mashina ham hayday olmayman. Mabodo, sen barcha ayol haydovchilarni ifodalamayapsanmi yoki ayollar ichida faqat sen shunchalik yomon haydaysanmi?” – Gapirayotgan bola edi.*) degan jumlasini oddiy dialog emas, balki matnning o‘zini anglash shakli sifatida ko‘rinadi. Go‘dak ko‘rinishidan go‘yo farishta qiyofasida bo‘lsa-da, nutqi hayotda ko‘pni ko‘rgan qariya kabi zaharxanda va jirkanch edi: *“It’s terrible. Asylum seekers and foreigners come here and take all our jobs and all our benefits, it said preternaturally, sweetly. They should all be sent back to where they come from.”* (Smit A., 2008, 28) (*Dahshat, qanday bunday bo‘lishi mumkin? Boshpana izlovchilar-u begona odamlar kelib, bizning ishimizni ham, nafaqamizni ham egallab olyapti, – dedi u shirin va muloyim ohangda. – Ularning bari o‘z yurti, o‘z kelib chiqqan joylariga qaytarilishi kerak.*) Bu chaqaloq

tilidan yangrayotgan soʻzlar real hayot mantigʻiga zid – goʻyo farishta koʻrinishidagi maxluq birdan jamiyat illatlari haqida jar solayotgan edi.

“It said: The pound is our rightful heritage. We deserve our heritage. Women shouldn’t work if they’re going to have babies. Women shouldn’t work at all. It’s not the natural order of things. And as for gay weddings. Don’t make me laugh.” (Smit A., 2008, 28) (*U dedi: Funt – bu bizning qonuniy merosimiz. Biz merosimizga haqlimiz. Ayollar agar bola tugʻmoqchi boʻlsa, ishlamasligi kerak. Umuman olganda, ayollar ishlashi kerak emas. Bu narsalar tabiat qonuniga zid. Bir jinsli nikohlar-chi? Kulgimni qistatma*). Bu hodisa hikoyaga surreal va grotesk kayfiyat beradi. Aslida chaqaloq obrazi ortida muallifning jamiyatga qaratilgan keskin kinoyasi yashiringanini sezish qiyin emas. Bola “mulohaza”lari orqali goʻyo kattalarning dolzarb muhokamalariga kirishib ketadi. Linda Hutcheon taʼkidlaganidek, bu postmodern matnning asosiy belgilaridan biri: badiiy asar faqat voqeani hikoya qilish bilan chegaralanmaydi, balki oʻzining yaratilgan konstruksiya ekanini ham koʻz-koʻz qiladi (Hatchen L., 1988, 274). Shu tariqa, Ali Smit matni oddiy voqealar bayonidan chiqib, jamiyatdagi stereotiplarni fosh etuvchi, oʻyin tusidagi shaklga aylanadi.

“The Child” hikoyasida hodisalar birinchi shaxs – bevosita ishtirokchi boʻlgan ayol – nigohidan bayon qilinadi. Bunday hikoya qiluvchiga toʻliq ishonib boʻlmasligi mumkin: u haqiqatni buzib koʻrsatishi yoki oʻzi ham voqelikni notoʻgʻri idrok etish ehtimoli bor (Nuning A., 1999, 140-167). Hikoya davomida oʻquvchida aynan shunday noaniqlik hissi tobora kuchayadi. Avvaliga, supermarketda aravasida goʻdakni koʻrib qolgan ayol bu bola oʻziga tegishli emasligiga qatʼiy ishongan holda xodimlarga xabar qiladi. Lekin atrofdagilar unga ishonishmaydi: xaridorlar chaqaloqni uning oʻz farzandi deb oʻylab, ayolni tabriklashga tushib ketishadi. *“At this point the child sitting in the trolley looked at me, raised his little fat arms in the air and said, straight at me: Mammuum”* (Smit A., 2008, 28). (*Shu payt aravachada oʻtirgan bola menga qaradi, miqti qoʻllarini men tomon choʻzib, menga qaradi va: “Oyiiiii”, dedi*). Hatto bolaning “Mammuum” (Oyiiiii) deb qoʻl choʻzishi ham barchaning koʻzida uni yosh ona sifatida koʻrsatadi. Shu nuqtada shubha tugʻiladi:

hikoya qiluvchi o'zi aytganidek haqiqatan begona bolani ko'ryaptimi yoki ruhiy charchoqdan o'z bolasini ham "begona" deb tasavvur qilyaptimi? Chaqaloqning gapira ketishi hikoyadagi ishonchlilikni yanada shubha ostiga qo'yadi. Ayol bir lahza qo'rqib ketgan bo'lsa-da, go'dakning shirali, maftunkor ovozi uni lol qoldiradi va hattoki kulgisini qistaydi. Bu yerda roviyning g'alati reaksiyasi – qo'rqish o'rniga kulish – uning ruhiy barqaror emasligiga ishora qilishi mumkin. Muallif bu ziddiyatli vaziyatni ataylab yaratgan: o'quvchi endi voqealarning qanchalik "haqiqiy" ekani haqida o'ylab qoladi. Chindan ham bola gapiryaptimi yoki bu ayolning xayolotimi? Shunday qilib, hikoyada **obyektiv haqiqat** rejimi izdan chiqadi. Hikoya so'ngida ham narratorning ishonchliligi masalasi ochiq qoladi. Ayol chaqaloqni begona aravaga solib qochib ketadi – bu uning najot topish usulimi yoki telbalarcha qilmishimi? Muallif bunga aniq javob bermaydi, yakunni ataylab noaniq qoldiradi. Shuning uchun "The Child"ni **ishonchsiz roviyga** ega asar deyish mumkin: unda hikoya qiluvchi so'zlariga to'liq tayanib bo'lmaydi, voqealarning haqiqatini o'quvchi o'zi anglashi kerak bo'ladi. Bu esa asarga xos **ko'pma'nolilik** va postmodern o'yin effektini kuchaytiradi.

Ta'kidlash kerakki, "The Child" qahramonining ichki kechinmalari oddiy shaxsiy hikoya emas, balki jamiyatning bosimidan tug'ilgan ruhiy iztiroblardir. Chaqaloq obrazi uning ongida go'yo jamiyatning "onalar farzand tarbiyalashi shart" degan buyrug'i kabi jaranglaydi. Bola hatto *"Mothers shouldn't work if they're going to have babies."* (Smit A., 2008, 28). (*Onalar farzand ko'rishni istashsa, ishlamasliklari kerak*) degan kinoyali gapni aytib, bu bosimni ochiq ifodalaydi. Ayol ongi bunday buyruqqa qarshi ich-ichidan isyon qilsa-da, baribir jamiyat qoidalaridan butkul qochib qutula olmaydi. Hikoya oxirida uning qandaydir ma'noda yengilgani – chaqaloqdan xalos bo'lsa ham, ruhan tinkasi qurigani sezilib turadi. Shu orqali asar zamonaviy ayolning o'z-o'zini anglashdagi murakkab sinovlarini, onalik va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi ziddiyatni badiiy ko'rinishda namoyon etadi.

Hikoya yakuni ham **noaniq va ochiq**: bola qayerdan paydo bo'lgani, uning keyingi taqdiri, hatto butun voqealarning o'zi realmi yoki yo'qmi – bularning barchasi javobsiz qoladi. Muallif ataylab javob bermaydi va o'quvchini mustaqil

fikrlashga, o‘z xulosasini chiqarishga majbur qiladi. Shu jihatdan Ali Smitning hikoyasi Xurshid Do‘stmuhammadning “Vasiy” hikoyasi bilan mushtaraklik kasb etadi: ikkala asarda ham bola obrazining g‘ayritabiiyligi markazda turadi va yakunda aniq javob emas, balki o‘quvchi uchun ochiq talqin imkoniyati qoladi. Ali Smit bu hikoyada mualliflik pozitsiyasini ochiq ifodalashdan tiyiladi. Chunki hikoya birinchi shaxs nomidan yozilgani bois, voqealar ham, mulohazalar ham faqat qahramon ayolning prizmasidan beriladi. Muallifning o‘zi ko‘zga tashlanmaydi. Hikoyaning yopiq yakunlanishi ham shuni ko‘rsatadiki, muallif aniq xulosadan qochib, o‘quvchini mustaqil talqinga undaydi. Asar davomida muallif o‘quvchiga bevosita murojaat qilmaydi, didaktik fikr bildirmaydi – bu ham postmodern uslubning xos belgisi. Natijada hikoyada muallif ovozi yashirin qoladi va o‘quvchi mazmunni o‘zi izlab topishga majbur bo‘ladi. Ushbu ikki hikoyalar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni quyidagi jadvalda aniqroq ko‘rish mumkin.

1-jadval

“Vasiy” va “The Child” hikoyalarining postmodernistik unsurlari

Tahlil mezon	“Vasiy” (Xurshid Do‘stmuhammad)	“The Child” (Ali Smit)
Sujet tuzilmasi	Fragmentatsion, ong oqimi asosida, psixologik parchalangan epizodlar	G‘ayritabiiy voqea asosida qurilgan, absurd va satirik tarzda
Voqea bayoni	Birinchi shaxsga yaqin, ruhiy notekislikni aks ettiruvchi	Birinchi shaxsli hikoyachi, lekin ishonchliligi shubhali
Ishonchsiz hikoyachi	Ona – ruhiy buzilish tufayli haqiqatni buzib tasvirlaydi	Ayol – voqealarni g‘aroyib, tushunarsiz tarzda yetkazadi
Ramzlarning qo‘llanilishi	Quyosh nuri, oyna, suv, narvon, chaqaloq-yostiq (psixologik timsollar)	Bola obrazi (gender, siyosiy, ijtimoiy stereotiplarning ramzi), ayol, xarid aravasi, “The Guardian”, o‘rmon, mashina va yo‘l

Metafiksiyon unsurlar	Takroriy harakatlar, noaniqliklar (yigit va bola obrazi realmi yoki xayolmi), ramziy qatlamlarning ustunligi, ona-bola dialoglari (ko‘p ovozlik va ishonchsiz roviy effektini yaratadi), ochiq yakun	Ishonchsiz roviy (bola realmi yoki onaning ong mahsulimi), bola nutqi (chaqaloq jamiyatdagi irqchi va jinsiy stereotiplarni fosh etuvchi “badiiy unsur”), real va irreal o‘yin, ochiq yakun
Markaziy mavzu	Onaning ruhiy inqirozi va mehr kuchi	Onalik stereotiplari va gender tengsizligi tanqidi
Ohang	Fojiaviy, dramatik, chuqur psixologik	Ironik, absurd, hajviy
Haqiqat talqini	Ichki tajriba va ruhiy zo‘riqish orqali ifodalanadi	Surreal voqea orqali haqiqatning buzilishi va noto‘g‘riligi ko‘rsatiladi
Yakun xususiyati	Ochiq yakun: ona tiklanadimi yoki yo‘qmi – noma’lum	Ochiq yakun: bola aslida kim – talqin o‘quvchiga havola qilingan
Kontekst	Milliy va ijtimoiy muhitda o‘zbek ayolining qismati	G‘arb jamiyatida zamonaviy gender va madaniy bosimlarning tanqidi

XULOSA

Xurshid Do‘stmuhammadning “Vasiy” va Ali Smitning “The Child” hikoyalari postmodern adabiyotga xos noan’anaviy kompozitsiya va sujet qurilishi bilan ajralib turadi. “Vasiy” hikoyasi an’anaviy izchil voqea rivojidan ko‘ra, bo‘lak-bo‘lak psixologik epizodlar orqali qurilgan bo‘lib, unda hodisalar xronologik izchillikka amal qilmay, balki bosh qahramonning buzilgan idrok oqimi shaklida ifodalanadi. Voqealar izchil hikoya o‘rniga ona ongining parchalanishi tarzida tasvirlanadi. Xuddi shunday, Ali Smitning “The Child” hikoyasi ham odatiy realizm me’yorlarini buzib, kutilmagan g‘aroib hodisani syujetga kiritadi: kundalik hayot

manzarasida to‘satdan xarid aravachasida paydo bo‘lgan va katta odamdek so‘kinib gapiradigan bola obrazi voqelik me‘yorlarini ostin-ustun qiladi.

Umuman olganda, “Vasiy” ham, “The Child” ham postmodern adabiyot tamoyillarini yaqqol ko‘rsatadi: an’anaviy sujetdan voz kechib, parcha-parcha kompozitsiya yaratish, ishonchsiz hikoyachi yordamida voqelikni nisbiylashtirish, ramzlar orqali ko‘p ma’noli haqiqatni ochib berish va individual ong tajribasini markazga qo‘yish. Faqat ohang va maqsad jihatidan ular turlicha: “Vasiy” fojiaiviy-psixologik ruhda onaning ruhiy iztirobini eksperimental usulda tasvirlasa, “The Child” hajviy va absurd yo‘sinda jamiyatdagi muammolarni yoritadi. Biri milliy va ijtimoiy hayot manzarasida inson ruhiyatini ko‘rsatsa, ikkinchisi zamonaviy G‘arb jamiyatida onalik va gender tengsizligi masalasini yosh avlodning kinoyali nutqi orqali fosh qiladi. Ammo har ikkisi ham postmodernizmga xos usullar yordamida subyektiv haqiqatni talqin etishda o‘ziga xos yondashuvni namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Barthes, Roland. The Death of the Author. – London: Fontana Press, 1967. – 160 p.
2. Cohn, Dorrit. Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction. – Princeton: Princeton University Press, 1978. – 271 p.
3. Eco, Umberto. The Open Work. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. – 284 p.
4. Hamdamov, Ulug‘bek. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b.
5. Heidegger, Martin. Being and Time (Sein und Zeit). – Oxford: Blackwell, 1962. – 589 p.
6. Hutcheon, Linda. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. – New York; London: Routledge, 1988. – 274 p.
7. McHale, Brian. Postmodernist Fiction. – London; New York: Routledge, 1987. – 278 p.

8. Meyer, Michael. *The Bedford Introduction to Literature: Reading, Thinking, Writing*. – Boston, MA: Bedford/St. Martin's, 2001. – 1773 p.
9. Nietzsche, Friedrich. *On Truth and Lies in a Nonmoral Sense*. – New Jersey: Humanities Press, 1999. – 84 p.
10. Nicol, Bran. *The Cambridge Introduction to Postmodern Fiction*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 194 p.
11. Nünning, Ansgar. *Unreliable Narration and the Historical Variability of Values and Norms: The Vicar of Wakefield as a Test Case of a Cultural-Historical Narratology*. – In: *Style*, Vol. 33, No. 2. – 1999. – Pp. 140–167.
12. Rimmon-Kenan, Shlomith. *Narrative Fiction: Contemporary Poetics*. – London; New York: Routledge, 2002. – 208 p.
13. Smith, Ali. *The Child*. – In: *The First Person and Other Stories*. – London: Hamish Hamilton, 2008. – P. 26. – 258 p.
14. Waugh, Patricia. *Metafiction: The Theory and Practice of Self-Conscious Fiction*. – London; New York: Methuen, 1984. – 176 p.
15. Yo'ldosh, Qozoqboy, Yo'ldosh, Muhayyo. *Badiiy tahlil asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 306 b.
16. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/xurshid-do-stmuhammad-1951/xurshid-do-stmuhammad-vasiy-hikoya>

REFERENCES:

1. Barthes, R. (1967). *The death of the author*. In S. Heath (Trans.), *Image–music–text* (pp. 142–148). London: Fontana Press.
2. Cohn, D. (1978). *Transparent minds: Narrative modes for presenting consciousness in fiction*. Princeton, NJ: Princeton University Press.
3. Eco, U. (1989). *The open work* (A. Cancogni, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Hamdamov, U. (2020). *World literature: Modernism and postmodernism*. Tashkent: Akademnashr.

5. Heidegger, M. (1962). *Being and time* (J. Macquarrie & E. Robinson, Trans.). Oxford: Blackwell. (Original work published 1927).
6. Hutcheon, L. (1988). *A poetics of postmodernism: History, theory, fiction*. New York, NY: Routledge.
7. McHale, B. (1987). *Postmodernist fiction*. London, UK: Routledge.
8. Meyer, M. (2001). *The Bedford introduction to literature: Reading, thinking, writing* (6th ed.). Boston, MA: Bedford/St. Martin's.
9. Nietzsche, F. (1999). On truth and lies in a nonmoral sense. In D. Breazeale (Ed.), *Philosophy and truth: Selections from Nietzsche's notebooks of the early 1870s* (pp. 79–97). New Jersey: Humanities Press. (Original work published 1873).
10. Nicol, B. (2009). *The Cambridge introduction to postmodern fiction*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
11. Nünning, A. (1999). Unreliable narration and the historical variability of values and norms: The vicar of Wakefield as a test case of a cultural-historical narratology. *Style*, 33(2), 140–167.
12. Rimmon-Kenan, S. (2002). *Narrative fiction: Contemporary poetics* (2nd ed.). London, UK: Routledge.
13. Smith, A. (2008). The child. In *The first person and other stories* (pp. 26–40). London, UK: Hamish Hamilton.
14. Waugh, P. (1984). *Metafiction: The theory and practice of self-conscious fiction*. London, UK: Methuen.
15. Yo'ldosh, Q., & Yo'ldosh, M. (2020). *Principles of literary analysis*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
16. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/xurshid-do-stmuhammad-1951/xurshid-do-stmuhammad-vasiy-hikoya>